

TEMURIYLAR DAVRIDA SUG‘ORISH TARMOQLARINING QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Muazzamxon Maxmudova Sultonmaxmudovna

Farg‘ona davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasи katta o‘qituvchisi, (PhD)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada temuriylar davrida sug‘orish tarmoqlarining qishloq xo‘jaligini rivojlanirishdagi ahamiyati yoritiladi. Ayniqsa, bu davrda Xurosondan oqib o‘tuvchi daryolar orqali sug‘oriladigan yerlarda yetishtirilgan turli xil dehqonchilik mahsulotlari haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Murg‘ob daryosi, Hofizi Abru “Geografiya”si, kanallar (nahr yoki juybor), ariqlar (juy), yer osti ariqlari (qanot yoki koriz).

АННОТАЦИЯ

В данной статье подчеркивается значение ирригационных сетей в развитии сельского хозяйства в период Тимуридов. В частности, в этот период приводятся сведения о различной сельскохозяйственной продукции, выращиваемой на землях, орошаемых реками, протекающими через Хорасан.

Ключевые слова: Река Мургоб, Хафизи Абру “География”, каналы (нахр или джойбор), арыки (джуй), подземные арыки (канот или кориз).

ABSTRACT

This article highlights the importance of irrigation networks in agricultural development during the Timurid period. In particular, during this period, information is provided about various agricultural products grown on lands irrigated by rivers flowing through Khorasan.

Keywords: Murgob river, Hafizi Abru “Geography”, canals (nahr or joybor), ditches (juy), underground ditches (kanot or koriz).

Temuriy hukmdorlar Xuroson viloyatining sug‘orish tarmoqlarini kengaytirishga, to‘g‘onlar va suv omborlari, korizlar qurishga alohida e’tibor qaratganlar. Temuriylar davri yozma manbalarida Xuroson viloyatining sug‘orish tarmoqlari, uning qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati yoritilgan.

Xuroson degan tarixiy viloyat Eronning shimoliy-sharqiy va qisman sharqiy qismida, Turkmanistonning janubi-sharqida, Afg‘onistonning shimoli-g‘arbida joylashgan bo‘lib, XIV asrning oxiri – XVI asrning boshlarida temuriylar davlatining

asosiy qismi edi. Eng yirik shaharlari Hirot, Marv, Mashhad, Nishapur, Balx, Tus, Saraxs, Obivard, Niso, Sabzovor hisoblanib, temuriylar davrida yanada rivojlangan. Temuriylar davrida Herirud (Tajan), Kashaf (Kashafrud), Murg‘ob, Balxob daryosi suvlaridan kanallar qazib, sug‘orishda keng foydalanilgan.

Xuroson hududining katta qismi qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil bo‘lib, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun yerlarni sug‘orish kerak edi. Bunday yerlar “doimiy” deb atalib, mintaqalari osti va yer usti suvlari bilan sug‘orilgan. Xurosonda yerlar asosan uch xil yo‘l bilan sug‘orilgan: 1) Herirud, Murg‘ob, Tajan va Balxob daryolaridan suv oluvchi katta kanallar (nahr yoki juybor), ariqlar (juy) orqali; 2) yer osti ariqlari (qanot yoki koriz) orqali; 3) g‘ishtdan yoki toshdan qurilgan to‘g‘onlar yoki suv omborlari (band), ba’zan tuproqli oddiy to‘sıqlar orqali[1:122]. Yirik kanallar va to‘g‘onlarni qurish juda katta mablag‘ va ishchi kuchini talab qilgan. O‘sha davr uchun bunday ishlar murakkab bo‘lib, davlat hukmdori tomonidan tashabbus ko‘rsatilib, homiylik qilingan.

O.Bo‘riyev Murg‘ob daryosi haqida quyidagilarni bayon qiladi: Bu daryo haqida ancha mufassal ma’lumot Hofizi Abru “Geografiya”sining Xuroson tavsifi qismidan o‘rin olgan. Unda Murg‘ob daryosi Bomiyon tog‘larining Sanjob darasidan boshlanib, Garchiston (Bandi Turkiston va Safidko‘h tizmalar) hamda Jarravon (Hisor tizmasi) oralaridan oqib o‘tadi; so‘ngra Bodg‘is (Bodxiz) va Murg‘ob buluk (tuman)lari hududidan oqib tekislikka, ya’ni Marv bulukiga yetadi va oxiri cho‘lda qumlar orasida tugaydi. Amir Temur davrida, so‘ngra Shohrux Mirzo davrida ham Murg‘ob daryosi suvidan sug‘orishda keng foydalanilgan, yangi ariqlar qazilib ekinzorlar, bog‘-rog‘lar barpo etilgan[2:140].

Hofizi Abru “Hofizi Abru geografiyası” asarida Xuroson viloyati va tumanlarining sug‘orish tarmoqlari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari haqida batafsil yozgan. Uning qayd etishicha, Karux tumani Hirotning shimoli-sharqida joylashgan, qadimdan dehqonchilik qilingan bu hudud ham daryo va koriz suvlari bilan sug‘orilgan[3:28]. Herirud viloyati suvga boy hudud, bu yerda yirik mulkler va bog‘lar mavjud bo‘lib turli mevalarga boy. Herirudda Muskan olmasi, Toyifi uzumlari, shuningdek, yong‘oq va bodom ko‘p yetishtirilgan[4:29]. Bodg‘is viloyatida yaylovlari juda ko‘p, ko‘plab buloqlari, daryolari va korizlari mavjud[5: 32]. Murg‘ob viloyati Bodg‘isning shimolida joylashgan, Amir Temur Murg‘ob viloyatini suv bilan ta’minalash maqsadida qo‘shiniga 20 ta kanal qazdiradi. Viloyatning qishloq xo‘jaligi g‘allachilikka asoslangan[6:34]. Biz, Amir Temur farmoni bilan kanallar qazdirilishini oldingi bobda berib ketganmiz.

Hofizi Abruning ta’riflashicha, Balx Xurosonning eng yirik shahri hisoblanadi, u eng ko‘p suvga, eng unumdar tuproqqa ega bo‘lib, dehqonchilikda juda ko‘p miqdorda hosil olingan. Hofizi Abru Balxdan oqib o‘tuvchi kanal nomlari va kanallar orqali

sug‘oriladigan hudud nomlarini birma-bir keltirib o‘tgan. Shibirg‘on viloyati suvga boy bo‘lib, u yerda bog‘lar ko‘p va dalalarda don yetishtirilgan. Andxud viloyati suvga mo‘l, asosan, uzum yetishtirishga ixtisoslashgan. Saraxs viloyati suvni Herirud daryosidan oladi, yoz oylarida suv kamayadi. Asosan, g‘alla yetishtirilgan[7:44].

Noelle-Karimi Isfizor viloyati va Hirot o‘rtasidagi masofa 20 farsaxni tashkil etishini qayd qilib, viloyatning sug‘orilishida daryo suv va koriz suvlari foydalanilishini yozadi[8:33]. Hofizi Abru Haf, Baharz, Kusuyi, Fusanj, Jom viloyatlarining irrigatsiya tizimiga quyidagicha ta’rif bergan: Haf viloyati hududlari koriz suvlari bilan sug‘orilgan. Bu hududda daryo suvi deyarli yo‘q. Bu yerda tut daraxtlari mo‘l-ko‘l o‘sib, ipak olingan. Anorga boy. Paxta ko‘p miqdorda yetishtirilgan. Baharz viloyatining yerlari daryo va koriz suvlari orqali sug‘orilgan, lekin koriz suvlari sug‘orishda ahamiyatliroq. Kusuyi viloyati Hirotdan g‘arbda joylashgan, Fusanj viloyatiga tutash, turli mevali bog‘lari ko‘p, uzum esa o‘ziga xos hisoblangan. Suvni, asosan, Herirud daryosidan oladi, koriz suvlaridan sug‘orishda foydalanilgan. Eski shahar ma’nosini bildiruvchi Fusanj viloyatidan Hirotgacha bo‘lgan masofa 6 farsaxni tashkil etgan. Uning suvi ham Heriruddan keladi. Bog‘lari ko‘p, turli mevalarga boy, ayniqsa, uzumdan bu yerda juda ko‘p miqdorda quritilgan mayiz (kishmish) tayyorlangan[9:42]. Jom viloyati ham daryo suvlariga hamda koriz suvlariga boy, lekin koriz suvlari ustunlik qilgan[10:35-36].

Hofizi Abru asarda Ko‘histon viloyatining har bir tumaniga alohida-alohida ta’rif berib ketgan. Viloyat boshqa viloyatlarga nisbatan maydonining kattaligi bilan farq qilib, u 100 farsaxdan ortiq bo‘lgan. Ushbu viloyat ham, asosan, koriz suvlari orqali sug‘orilgan[11:38]. Nishopur viloyati ham daryo suvlari, ham koriz suvlari orqali sug‘orilgan[12:37-42].

Tuba Kalkan temuriylar davrida Kam va Haf viloyatlari, Hirot va Mashhad muhim markazlar bo‘lganligini, Hirot bilan bog‘langan Kam viloyatining bir chetidan ikkinchi chetiga sug‘orish kanallari o‘tkazilganligini yozadi. Tuba Kalkan temuriylar davrida irrigatsiya tizimiga qaratilgan e’tibor tufayli mevalar juda ko‘p yetishtirilganligini keltirib o‘tadi. Haf viloyatining uzumlari, qovunlari va anorlari mazali bo‘lgan. Zavede shahrida ipak, g‘alla, paxta va uzum kabi mevalar yetishtirilgan. Janubiy Ko‘histon viloyatida paxta va ipak, asosan, Hirot aholisining kiyim-kechak ehtiyojini qondirish uchun yetishtirilgan. Shuningdek, Astrobod, Haf va Kam viloyatida ko‘plab tut daraxtlari bor, shuning uchun ipak ishlab chiqarilgan. Bodg‘isda turli xil mevalar yetishtirilgan. Ularning “Bobo shayx” deb nomlangan mazali qovunlari juda mashhur bo‘lgan. Qovun bozorining daromadi har yili 50 ming kepak dinorni tashkil etgan. Bodg‘is o‘sha davrda Hirot uchun zarur bo‘lgan tovarlarni yetkazib beruvchi hudud bo‘lgan. U yerdan otlar, qo‘ylar va har xil mayda mollar, don va yog‘och kelgan[13:529].

Hofizi Abru temuriylar davrida Hirotga qarashli buluklarning (shahar atrofidagi shaharga qarashli tumandan kichik bo‘lgan hududlar) suv ta’minoti haqida yozgan. Quyidagi ma’lumotlar orqali biz Hirot buluklarining irrigatsiya tizimi haqida tasavvur hosil qilishimiz mumkin. Hirotning Godare buluki Herirud daryosining janubida joylashgan bo‘lib, bu bulukdagi qishloq yerkari Malan kanali orqali sug‘orilgan va bu bulukda ham yer osti kanallari (koriz) mavjud bo‘lgan[14:16]. Hirot shahrining janubida joylashgan Godare tumanini Juyi Malan va Juyi Ziyoratgoh deb nomlanuvchi ikkita kanal suv bilan ta’minlagan. Bu tumanni ham sug‘orilishida koriz suvlaridan foydalilanilgan[15:25-28]. Noelle-Karimi ham Hirotni suv bilan ta’minlovchi buluklarni ta’riflab o‘tgan. Injil Hirotni suv bilan ta’minlaydigan buluk. Injil kanalining quyi oqimidagi qishloqlar hududi “quyi shahar” deb atalgan[16:18]. Hirot shahrining janubi-g‘arbidagi va Herirudning shimolidagi bo‘shliqni Alanjon tumani egallagan. Uning eng muhim sug‘orish kanali Juyi Kartabar yoki Shohi Juy deb nomlangan. Bu bulukda bog‘dorchilik ham, dehqonchilik ham muhim ahamiyatga ega. Gurvan-Pashtan bulukida bog‘dorchilikdan ko‘ra dehqonchilik ustunlik qiladi. U Herirud shimolida Hirot shahri ustida joylashgan. Ushbu bulukda yer osti kanallari (koriz) juda ko‘p[17:24]. Turon-Tuniyon bulukida ham dehqonchilik ustunlik qilgan. U Heriruddan shimolda, Hirot shahri tepasida joylashgan. Bu buluk ham yer osti kanallariga juda boy[18:22]. Xiyobon buluki Herirud daryosi va Hirot shahrining shimolida joylashgan. Xiyobon bulukining qishloqlari daryo suvlari hamda koriz suvlarini orqali sug‘orilgan, lekin daryo suvlarini ustunlik qilgan. Hirotning shimolida joylashgan Parvon-Havodastak bulukida, asosan, koriz irrigatsiyasi mavjud. Kamboraq va Uzman-Tizan buluklari Herirudning janubida joylashgan, ushbu hududlar ham daryo va koriz suvlarini bilan sug‘oriladi, bog‘dorchilik va dehqonchilik rivojlangan[19: 27].

Terri Allen doktorlik dissertatsiyasida temuriylar davrida Hirot shahrini suv bilan ta’minlovchi 40 ta kanal va 6 ta hovuzning ro‘yxatini keltirib o‘tadi[20: 63-64]. Liza Golombekni qayd etishicha, Hirot atrofidagi Zaval tumani yigirma uchta kanal suvi bilan sug‘orilgan, suv dastavval tegirmonlarni quvvatlantirib, so‘ng butun tuman bo‘ylab tarqalib, ekin yerlarini sug‘organ. Barcha tumanlarda mevalar mo‘l-ko‘l bo‘lib, o‘sha davrda Samarqandda bo‘lgani singari un, sabzavot va meva kabi asosiy mahsulotlar juda arzon edi[21:28].

Mariya Subtelni Herirud vodiysidagi taddiqotlar orqali sug‘orish kanallari bo‘ylab aholi zichligi har bir kvadrat kilometrga 1000 kishini tashkil etganligini aniqlaydi[22:119]. Bundan ko‘rinib turibdi-ki, aholi kanallar bo‘yiga kelib yashagan va dehqonchilik bilan shug‘ullangan.

Temuriylar davrida ekin yerlarini sug‘orishga qaratilgan e’tibor natijasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmi keskin oshib, aholining turmushi

farovonlashdi. Mavarounnahr va Xurosonda turli xil mazali mevalar yetishtirilgan. Ismoil Akaning yozishicha, qishloq xo‘jaligi ekinlari sifatida Samarqandning uzum va olmasi, Buxoroning olxo‘ri va qovunlari, Kobulning issiq iqlimi mevasi bo‘lgan apelsin, turunch (achchiq apelsin) va shakarqamishi, Hirot yaqinidagi Siyovusan qishlog‘ining uzumlari, Bodg‘isning pistasi, Shamburg‘on qovuni, Murg‘obning guruchlari, Marvning g‘alla, paxta va qovuni, Astrobodning apelsin, turunch (achchiq apelsin) va limoni, Ferah viloyatining donlari, Yazdning shakarqamishlari mashhur bo‘lgan[23:118].

Eronning Islom ozod universiteti, Mahallat filiali professori, doktor Amir Temur Rafiyning ushbu universitet jurnalida “Temuriylar davrida Buyuk Xurosonning iqtisodiy ahvoli” nomli maqolasi nashr etilgan. Ushbu maqolada muallif tomonidan mo‘g‘ullar davrida Eronning iqtisodiy tanazzuli, Amir Temurning Eron tarixida yangi davrni boshlab berishi tahlil qilingan. Muallif maqolada temuriylar davri qishloq xo‘jaligi va sug‘orish tizimini quyidagicha ta’riflaydi: “Temuriylar davrida har bir qishloq aholisi o‘z uyiga ega bo‘lib, qishloqning yaylovlari va suv resurslaridan bemalol foydalanish huquqiga ega bo‘lgan. O‘scha davrda Eronda eng asosiy qishloq xo‘jaligi mahsuloti bug‘doy va arpa hisoblangan. Kaspiy dengizining qirg‘oqbo‘yi hududlari guruch yetishtirishda birinchi o‘rinda turgan. Eronning qurg‘oqchilligi, daryo va buloqlarning yetishmasligi dehqonlar va qishloq aholisining asosiy muammosi hisoblanib, sug‘orish tizimiga alohida e’tiborni talab qilgan. Eronda, asosan, sug‘orishning qanot va keng tarqalgan koriz usulidan foydalanilgan. Biz, Hofizi Abru ma’lumotlari orqali mo‘g‘ullar davriga nisbatan qishloq xo‘jaligida ancha sezilarli yutuqlarni ko‘ramiz”[24:66].

Temuriylar davrida ekin yerlarining katta qismini suyurg‘ol sifatida berilishi, sug‘orish maydonlarining kengaytirilishi, qishloqlarning mulkdorlar nazoratiga o‘tishi hosil yetishtirish hajmini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Qishloq xo‘jaligida bug‘doy, sholi, jo‘xori, tariq, paxta, meva va sabzavotlar, poliz ekinlarini yetishtirish hajmi oshgan, bu esa aholi turmushining farovon bo‘lishiga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- [1] Subtelny M. Timurids in Transition. – Leiden-Boston: Brill, 2007. – P. 122.
- [2] Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё тарихий географияси. – Тошкент: “MUMTOZ SO‘Z”, 2017. – Б. 140.
- [3].جغرافیای حافظ ابرو: بخش خراسان. – تهران: انتشارات بنیاد فرهنگ ایران، ۱۳۴۹. – ص. ۲۸.
- [4].جغرافیای حافظ ابرو: بخش خراسان. – تهران: انتشارات بنیاد فرهنگ ایران، ۱۳۴۹. – ص. ۲۹.
- [5].جغرافیای حافظ ابرو: بخش خراسان. – تهران: انتشارات بنیاد فرهنگ ایران، ۱۳۴۹. – ص. ۳۲.
- [6].جغرافیای حافظ ابرو: بخش خراسان. – تهران: انتشارات بنیاد فرهنگ ایران، ۱۳۴۹. – ص. ۳۴.
- [7].جغرافیای حافظ ابرو: بخش خراسان. – تهران: انتشارات بنیاد فرهنگ ایران، ۱۳۴۹. – ص. ۴۴.

- [8] Noelle-Karimi Ch. The pearl in its midst Herat and the mapping of Khurasan (15th–19th Centuries). – Wien: Austrian Academy of Sciences Press, 2014. – P. 33.
- جغرافیای حافظ ابرو: بخش خراسان. – تهران: انتشارات بنیاد فرهنگ ایران، ۱۳۴۹. – ص. ۴۲.
- [9] Krawulsky D. Häfiz Abrü: Horäsän zur Timuridenzeit: nach dem Tärikh-e Häfez-e Abrü (verf. 817-823 h.). – Wiesbaden : Reicher, 1984. – S. 35-36.
- جغرافیای حافظ ابرو: بخش خراسان. – تهران: انتشارات بنیاد فرهنگ ایران، ۱۳۴۹. – ص. ۳۸.
- [10] Krawulsky D. Häfiz Abrü: Horäsän zur Timuridenzeit: nach dem Tärikh-e Häfez-e Abrü (verf. 817-823 h.). – Wiesbaden : Reicher, 1984. – S. 37-42.
- [11] Kalkan T. Sultan Şâhrûh döneminde Herât ekonomisi // The Journal of Academic Social Science Studies. Number: 31, p. 523-538, Winter II 2015. – S. 529.
- جغرافیای حافظ ابرو: بخش خراسان. – تهران: انتشارات بنیاد فرهنگ ایران، ۱۳۴۹. – ص. ۱۶.
- [12] Noelle-Karimi Ch. The pearl in its midst Herat and the mapping of Khurasan (15th–19th Centuries). – Wien: Austrian Academy of Sciences Press, 2014. – P. 25-28.
- جغرافیای حافظ ابرو: بخش خراسان. – تهران: انتشارات بنیاد فرهنگ ایران، ۱۳۴۹. – ص. ۱۸.
- جغرافیای حافظ ابرو: بخش خراسان. – تهران: انتشارات بنیاد فرهنگ ایران، ۱۳۴۹. – ص. ۲۴.
- جغرافیای حافظ ابرو: بخش خراسان. – تهران: انتشارات بنیاد فرهنگ ایران، ۱۳۴۹. – ص. ۲۲.
- جغرافیای حافظ ابرو: بخش خراسان. – تهران: انتشارات بنیاد فرهنگ ایران، ۱۳۴۹. – ص. ۲۷.
- [13] Allen T. Timurid Herat. – Wiesbaden: Reichert, 1983. – P. 63-64.
- [14] Golombok L., Wilber D. The Timurid Architecture of Iran and Turan. Vol. I. – New Jersey: Princeton University press, 1988. – P. 28.
- [15] Subtelny M. Timurids in Transition. – Leiden-Boston: Brill, 2007. – P. 119.
- [16] Ismail Aka. XV. yüzyılın ilk yarısında timurlular'da ziraî ve ticâri faaliyetler // Tarih Enstitüsü Dergisi. – İstanbul: İstanbul Üniversitesi Edebiyat Fakültesi, 1981. – S. 118.
- [17] Amir Teymour Rafiei. A Glance at the Economic Situation of the Great Khorasan in Timurid's Era // Tarikh, Volume: 2. Issue: 6, 2007. – P. 66.